

**AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD  
IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR**

**Kamolova Sarvinoz O'rol qizi**

*Alfraganus universiteti "Xalqaro munosabatlar"*

*yo'nalishi, 3-kurs talabasi*

*e-mail: [kamolovasarvinoz1@gmail.com](mailto:kamolovasarvinoz1@gmail.com)*

**Ilmiy rahbar: Muxamedov Asror Asadovich**

*Falsafa bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**ANNOTATSIYA:** Zamonaviy globallashuv davrida jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish va davlat boshqaruvini samarali tashkil etishda ayollarning siyosiy faolligi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayollarni siyosiy hayotga keng jalb etish nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda siyosiy tizimda ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratilgani holda, ularning yetakchilik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar ham mavjud. Mazkur maqolada ayollarning siyosiy faolligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar, mavjud shart-sharoitlar, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Ayollar siyosati, siyosiy faollik, gender tenglik, deputat ayollar, siyosiy partiyalar, "Ayollar qanoti", muammolar, imkoniyatlar, me'yoriy-huquqiy bazasi, islohotlar.

**ПОВЫШЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН:  
СОВРЕМЕННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ**

**АННОТАЦИЯ:** В эпоху современной глобализации политическая активность женщин становится важным фактором устойчивого развития общества, утверждения принципов социальной справедливости и эффективной организации государственного управления. Широкое вовлечение женщин в политическую жизнь служит не только обеспечению гендерного равенства, но и ускорению процесса общественного развития. Несмотря на создание в последние годы новых возможностей для женщин в политической системе, существует ряд проблем, препятствующих им в полной мере реализовать свой лидерский потенциал. В статье анализируются реформы, проводимые для повышения политической активности женщин, существующие условия, а также существующие проблемы и пути их решения.

**Ключевые слова:** женская политика, политическая активность, гендерное равенство, женщины-депутаты, политические партии, «Женское крыло», проблемы, возможности, нормативно-правовая база, реформы.

**INCREASING WOMEN'S POLITICAL ACTIVITY: CURRENT OPPORTUNITIES AND PROBLEMS**

**ANNOTATION:** *In the era of modern globalization, women's political activity is emerging as an important factor in the sustainable development of society, the establishment of principles of social justice, and the effective organization of public administration. The wide involvement of women in political life serves not only to ensure gender equality, but also to accelerate the process of social development. While new opportunities have been created for women in the political system in recent years, there are a number of problems that prevent them from fully realizing their leadership potential. This article analyzes the reforms being carried out to increase women's political activity, existing conditions, as well as existing problems and ways to overcome them.*

**Keywords:** *Women's politics, political activity, gender equality, women deputies, political parties, "Women's Wing", problems, opportunities, regulatory and legal framework, reforms.*

*"...ayollarning ovozini istisno qiladigan har qanday tizim adolatsiz, uni vakillik hokimiyati deb nomlash mumkin emas"* Siyosiy fanlar va gender nazariyasi professori

**Enn Fillips:**

**KIRISH**

Ayollarning siyosiy faolligi — jamiyat rivoji va demokratik boshqaruvning muhim ko'rsatkichi. O'zbekiston mustaqillik yillarida gender tengligini ta'minlash va ayollarning siyosiy vakilligini kuchaytirish borasida sezilarli siyosiy va normativ-huquqiy tashabbuslar amalga oshirildi. Ammo, amaliyotda ba'zi to'siqlar saqlanib qolmoqda. Xotin-qizlarning siyosat va saylov jarayonlaridagi ishtirokiga oid me'yoriy baza, birinchi navbatda, xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ayollarning siyosiy va saylov jarayonlarida teng ishtirok etishi kamsitilmaslik va siyosiy huquqlardan teng foydalanish tamoyillari asosida belgilab qo'yilgan bo'lsa, Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya va boshqa bir qator Mintaqaviy konvensiyalarda bunday huquqlarning amalga oshirilishi jinsga qarab bo'linmasdan ta'minlanishi kerakligi ta'kidlab o'tilgan. [1] Maqolaning maqsadi O'zbekiston kontekstida ayollarning siyosiy faolligini oshirish uchun mavjud imkoniyatlar va muammolarni aniqlash, ayollar majlisidagi tajribalarni tahlil qilish, va shu asosda takliflar ishlab chiqishdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ayollar va erkaklar teng huquq va imkoniyatlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish

to'g'risida"gi, shuningdek "2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy Dastur" va 2030-yilgacha bo'lgan strategiyalar — ayollarning siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim hujjatlar sanaladi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi.

Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini hamda yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga oladi[2]. Ushbu maqsadni amalga oshirishda xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: Siyosiy faollikning o'zi nima? Siyosatshunoslikka oid terminlar ensiklopedik lug'atida "Siyosiy faollik – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy guruh yoki alohida shaxslar faoliyati" sifatida ta'riflanadi[3]. Zamonaviy siyosatshunoslikda siyosiy faollik "siyosiy ishtirok" kategoriyasi bilan ifodalanadi. Bir qator siyosatshunoslar, siyosiy ishtirokni shaxslar va ijtimoiy jamoalarning siyosat sohasidagi har qanday faoliyati sifatida tavsiflash mumkinligini ta'kidlaydilar[4]. Xususan, D.V.Konichev siyosiy ishtirokni siyosiy tizimning turli darajalarida qaror qabul qilish jarayonlariga fuqarolarning erkin tarzda bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishdagi faolligi sifatida qayd etsa [5], M.M. Nazarova shaxs yoki guruhlarining davlat hokimiyatining turli darajalaridagi qarorlar qabul qilinishiga ta'sirini siyosiy ishtirok sifatida baholaydi [6].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, ayollar siyosiy faolligi – bu davlat hokimiyatining barcha darajalari va jabhalaridagi qaror qabul qilish jarayonlarida xotin-qizlarning bevosita yoki bilvosita ishtiroki deya ta'rif berilishi mumkin.

Qayd etish kerak, mamlakatimizda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator yo'nalishlarda ishlar boshlangan. Misol uchun, har yili muayyan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari davlat hisobidan qoplab berilyapti, ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan qizlar uchun davlat grantlari soni 2 barobarga oshirildi, uy-joyga muhtoj ayollarga ipoteka kreditining 15 foizi miqdorida boshlang'ich to'lov to'lab

berilyapti, «Ayollar daftari» ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlar o'z ishini boshlashi uchun subsidiya ham ajratilyapti.

Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi, ularning davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita va faol ishtirok etishi, turli sohalarda o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, teng huquq hamda imkoniyatlardan to'siqlarsiz foydalana olishi Xalq demokratik partiyasining dasturiy maqsadlariga mos keladi.

Xususan, bugungi kunda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga, tadbirkorlik sohasida 45 foizga yetgani e'tiborga molik. Parlamentda, mahalliy Kengashlarda ijtimoiy-siyosiy masalalarni muhokama qilish va qonun hamda qarorlar qabul qilishda ayol siyosatchilar faol qatnashmoqda. Mahalliy Kengashlarda faoliyat yuritayotgan deputatlarning 31 foizi ayollardir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida muhim rol o'ynagan VI-VIII asrlardagi yirik saltanat Turk hoqonligi haqida yozar ekan, turk arab tarixchisi Ibn Battuta xabar beradi: "Turk xoqonlari imzo chekayotganda "sulton va uning xotinining amri bilan", - deb yozganlar"[9] O'rta asrlar tarixiga nazar tashlasak, ulkan saltanatga hukmronlik qilayotgan Temuriy sulton Umarshayx Mirzoning 1494-yilda baxtsiz hodisa tufayli halok bo'lgach, Farg'ona taxtiga 12 yoshli Bobur Mirzo o'tqazilganligi va Bobur yosh bo'lganligi uchun davlat ishlarini ishonchli beklardan Hojiqozi va o'qimishli, oqila onasi Qutlug' Nigorxonim yordamida boshqarganligi haqidagi tarixiy haqiqatlarni inkor etib bo'lmaydi [10]. Keyingi davrda ya'ni 1917- yildan boshlab Sovet Ittifoqidagi voqealar o'z o'zidan uning tarkibida bo'lgan O'zbekistondagi ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ham ta'sir qildi. Sotsialistlar, bolsheviklar ayollar bo'yicha o'z qarashlarini olg'a sura boshladi. 1917-yildan boshlab ayol siymosi va shaxsi siyosiylashadi, har bir siyosatchi ayollar masalasida o'z fikrini bildirib boshlaydi[11]. Va nihoyat, 1918-yil iyulda qabul qilingan Konstitutsiyaning 64-moddasida saylash va saylanish huquqi erkaklar va ayollar uchun birdek belgilab qo'yildi.

Jumladan, o'rganishlarda ma'lum bo'lishicha, xotin-qizlarning mehnat bozorida ishtiroki 40 foiz atrofida, ular orasida ishsizlik masalasi hali ham dolzarb.

**XULOSA**

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi – bu nafaqat gender tengligi masalasi, balki butun jamiyat taraqqiyotining muhim mezonidir. Ularni faollikka undovchi muhit yaratish, imkoniyatlarni kengaytirish, huquqlarini ta'minlash orqali O'zbekiston yanada kuchli, adolatli va taraqqiy etgan jamiyatga aylanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. [https://www.oriens.uz/media/journalarticles/79\\_Normayeva\\_Mashhura\\_Gulomovna\\_552-561.pdf](https://www.oriens.uz/media/journalarticles/79_Normayeva_Mashhura_Gulomovna_552-561.pdf)
2. Геродот. История в девяти книгах. Л.: Наука. 1972. Книга 1. С. 205-214
3. Юстин, Марк Юниан (I-III вв.). Эпитома сочинения Помпея Трога “HistoriaePhillipicae” = EpitomaHistoriarumPhillipicarumPompeiTrogii. СПб.: Издво: С.-Петербург. ун-та, 2005. С.388.
4. <https://yuz.uz/uz/news/ayollarning-siyosiy-faolligini-oshirish-imkoniyat-va-muammolar-tahlil-qilindi>
5. [https://uza.uz/oz/posts/ayollar-faolligini-oshirish-borasidagi-imkoniyat-va-muammolar-muhokama-qilindi\\_762211](https://uza.uz/oz/posts/ayollar-faolligini-oshirish-borasidagi-imkoniyat-va-muammolar-muhokama-qilindi_762211)
6. [https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/ayollar\\_ishsizligi](https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/ayollar_ishsizligi)
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/25/women/>